

## O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

*Xursandov Komiljon Maxmatkulovich*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*iqtisodiyot fanlari nomzodi v. b. dotsent, PhD*

*komiljonXursandov1987@gmail.com*

+998946315151

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonlari, milliy strategiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish siyosati, ekologik modernizatsiya va resurslardan samarali foydalanishning iqtisodiy afzalliklari tahlil qilingan. Mamlakatda 2030-yilgacha mo'ljallangan "Yashil iqtisodiyot" strategiyasi, quyosh va shamol elektr stansiyalarini barpo etish, chiqindilarni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish hamda uglerod izini kamaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar asosiy e'tibor markazida bo'ldi. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik, balki iqtisodiy barqarorlikka erishishning muhim omili ekanini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Yashil iqtisodiyot, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik barqarorlik, modernizatsiya.

**Abstract:** This article analyzes the transition to a green economy in Uzbekistan, national strategies, the expansion of renewable energy sources, ecological modernization, and the economic advantages of efficient resource management. Special attention is given to the "Green Economy Strategy" until 2030, construction of solar and wind power plants, development of the waste-recycling industry, and reforms aimed at reducing the carbon footprint. The findings show that the green economy in Uzbekistan is a key factor not only for environmental protection but also for achieving sustainable economic growth.

**Keywords:** Green economy, renewable energy, sustainability, modernization, Uzbekistan, carbon footprint.

**Аннотация:** В статье рассматриваются процессы перехода Республики Узбекистан к зелёной экономике, национальные стратегии, расширение использования возобновляемых источников энергии, экологическая модернизация и экономические преимущества рационального использования ресурсов. Особое внимание уделено Стратегии «Зелёная экономика до 2030 года», строительству солнечных и ветровых электростанций, развитию индустрии переработки отходов и реформам по снижению углеродного следа. Результаты исследования показывают, что зелёная экономика является важным

фактором экологической и экономической устойчивости Узбекистана.

**Ключевые слова:** Зелёная экономика, возобновляемая энергия, устойчивость, модернизация, Узбекистан, углеродный след.

**Kirish:** So‘nggi yillarda dunyo miqyosida tabiat resurslaridan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash va barqaror iqtisodiy o‘rishga erishish eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. O‘zbekiston ham ushbu global jarayonlardan chetda qolmay, iqtisodiyotning dekarbonizatsiyasi, energiya samaradorligini oshirish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirmoqda. Mamlakatda 2019-yilda qabul qilingan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi – 2030” ushbu sohadagi islohotlar uchun asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Yashil iqtisodiyotning asosiy yo‘nalishlari

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda:

### **1. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish**

So‘nggi yillarda quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilishi jadallashdi.

Xususan: Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlarida yirik quyosh elektr stansiyalari ishga tushirilmoqda. Shamol energiyasi bo‘yicha Qoraqalpog‘iston va Navoiy hududlari strategik hudud sifatida tanlangan. Bu loyihalar yiliga millionlab tonna CO<sub>2</sub> chiqindilarini qisqartirishga yordam bermoqda.

### **2. Ekologik modernizatsiya va sanoatni transformatsiya qilish**

Sanoat korxonalarida chiqindilarni kamaytirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, suvni qayta aylantirish tizimlarini o‘rnatish bo‘yicha qat’iy talablar belgilangan.

### **3. Chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish**

O‘zbekiston bo‘yicha qattiq maishiy chiqindilarni saralash, qayta ishlash zavodlari va poligonlar modernizatsiya qilinmoqda. Chiqindini energiyaga aylantirish (“waste-to-energy”) texnologiyalarini joriy etish istiqbollari keng.

### **4. Qishloq xo‘jaligida ekologik yondashuvlar**

Tomchilatib sug‘orish, suv resurslarini monitoring qilish, yer degradatsiyasining oldini olish, organik o‘g‘itlardan foydalanish kengaymoqda. Bu nafaqat hosildorlikni oshiradi, balki ekologik izni kamaytiradi.

Yashil iqtisodiyotning iqtisodiy ahamiyati

Iqtisod bu tejash, to‘g‘ri taqsimlash, va tog‘ri yo‘naltirish degan ma’nolardaham tushunsa bo‘ladi. Ana endi yashil iqtisodiyot haqida so‘z ochadigan bo‘lsak. Bunda eng avvalo ekologiyani muhofaza qilish. Tabiyatda atrof muhitni yashillashtirish. Atrof muhida insonlar va texnikalardan yetkazilayotgan zararlarni muhofaza qilish. Xususan turli korxonalardan avtomobillardan turli xil texnikalardan tabiyat uchun kelayotgan zararlarni muhofaza qilish, Resurslardan va shu bilan birga qayta

tiklanuvchi resurslardan oqilona foydalanish. Tabiatdagi ekalogiyani muhofaza qilish. Bularning barchasi yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadlari hisoblanadi.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotning o'rni haqida gap borar ekan. Bugungi kunga kelib nafaqat O'zbekistonda balki butun dunyo bo'yicha yashil iqtisodiyotning o'rni juda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Shu jumladan hususan ekalogiyaning buzilishining oldini olish va iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishda xususiy sektorni jalb qilishning o'rni va afzalliklari hamda yurtimizning yashil iqtisodiyotga o'tishi va xususiy sektorni iqlimni yaxshilashga yo'naltirilgan loyihalarini amalga oshirish hamda ustuvor sohalarni dekarbonizatsiya qilish. Hususan O'zbekiston hududida sanoat, ishlab chiqarish, koxonalar va texnikalarning modenizatsiyalashda yashil iqtisodiyotning o'rni juda katta hioblanadi. Yashil iqtisodiyotning rivojlantirishga nazar soladigan bo'lsak albatta ekalogiyagaham to'xtalib o'tmasak bo'lmaydi. Bilamizki yurtimiz boshidan o'tgan 2020-yildagi karona virus yani covid 19 pademya paytida insonlar uchun ekalogiya qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini tushunib yetdik. Bugungi kunda mustaqil o'zbekiston yirik sanoat va agrar mintaq bo'lib, kelajakda dunyoga yuz tutgan mashina sozlik, energetika, kimyo, oziq – ovqat sanoati, transport majmuini yanada rivojlantirish ko'zda tutulgan. Bunday ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi Respublikada ijtimoiy – ekotizmlarning holatiga muayan darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Respublikada keskin bo'lib turgan ekologik va tabiatni muhofaza qilishga oid muammolar quyidagilar:

1. Yirik hududiy – sanoat majmualari joylashgan rayonlarda ya'ni Angren-Olmaliq Chirchiqlarda, Farg'ona-Marg'ilonda, Navoiy va boshqa rayonlardagi tabiatni muhofaza qilish muammolari. Bu rayonlarda ijtimoiyekotizm holati yaxshi emas. Chunki sanoat markazlarida chiqayotgan turlixil gazlar va chiqindilar atrof-muhitni ekologik holatini buzulishiga olib kelmoqda.

2. Agrosanoat majmuidagi ekologik muammolar.

3. Tabiatdagi suvlarning sanoat chiqindilari pestisedlar va mineral o'g'itlar bilan ifloslanishi ham muammolardan biridir.

4. O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va qayta tiklash muammolari, qo'riqxonalar va milliy bog'lar tarmog'ini kengaytirish

### **XULOSA**

Xulosa qilib shuni ayta olish mumkunki yurtimizda yashil iqtisodiyotga katta e'tibor qaratish zarur. Resurslardan va qayta tiklanuvchi resurslarda oqilona voydalanish Ekalogiyaga yetayotgan zararlar miqdorini kamaytirish va ekalogiyani muhofaza qilish zarur. Bular bilan birga yashil energetika va yashil texnologiyani rivojlantirishga katta etibor qaratish zarur. Buning uchun barchamiz birdek kurashish va burdamlikda xarakat qilish zarur xisoblanadi

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Yashil iqtisodiyot darslik /A.B.Вахабов, Ш.Х.Хажобакиев – Тошкент.: “Universitet”, 2020. -262 б.
2. 2. Yashil ekalogiya o'quv qo'llanma.
3. O,,zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son
4. World Economic and Social Survey 2011: The Great Green Technological Transformation / Department of Economic and Social Affairs of the United Nations Secretariat (DESA). - New York: United Nations, 2011. - E/2011/50/Rev. 1 ST/ESA/333.